
Eksportda yangi bozorlar kashf etilmoqda: Farg'onaning qora mayizi Buyuk Britaniya va Kanadaga kirib bordi

Rishton tumanidagi tadbirkor Abdumannob Doniyorov rahbarligidagi "Laudan Harvest" xususiy korxonasi tomonidan Buyuk Britaniyaning qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulgurji savdosiga ixtisoslashgan Laudan Limited kompaniyasi bilan tuzilgan eksport shartnomasiga ko'ra, ushbu davlatlarga qora mayiz mahsuloti jo'natildi.

Shuningdek, "Laudan Harvest" xususiy korxonasi tomonidan HEB International xalqaro savdo va logistika kompaniyasi bilan tuzilgan eksport shartnomasi doirasida dekabr oyida 20 tonna mayiz Kanadaga eksporti amalga oshirilgan bo'lsa joriy yilning 3 -4 fevral kunlari Kanadadagi importyor mahsulotlarni qabul qilib oldi.

Bundan tashqari 2 fevral kuni ham Buyuk britaniya davlatiga yana 40 tonna qora mayiz mahsulotlari eksporti amalga oshirildi.

Ushbu davlatlarga mahsulot eksporti joriy yil davomida xam keng ko'lamda eksport qilinishi rejalashtirilgan.

Eksport muhiti va eksportyorlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar o'z samarasi va natijadorligini namoyon etayotganligi, O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlari jahon bozorida o'z o'rnini topayotgani muhtaram Prezidentimizning olib borayotgan oqilona siyosatlari natijasidir.

2024-02-08 13:22:41